



O‘ZBEK TILINI XORIJLIK TALABALARGA O‘QITISHDA LEKSIK-GRAMMATIK BILIMLARNI TAQDIM QILISHNING BA’ZI XUSUSIYATLARI

Rasulov Namoz Murodulloyevich,
O‘zMU o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206498>

Annotatsiya. O‘zbek tilining zamonaviy dunyoda katta ahamiyat kasb etib borayotgani, uni davlat ichkarisida ham, tashqarisida ham o‘rganishga qiziqish ortib borayotganini anglatadi. O‘zbek tilini o‘qitish jarayoni uzoq yillik tarixga ega bo‘lib, uni ham ilmiy, ham praktik maqsadlarda o‘rganib kelsalar-da, haligacha o‘zbek tilini oliy ta‘lim muassasalarining xorijlik talabalariga o‘qitish metodikasi, lingvistik yondashuvlari monografik planda o‘rganilmagan. Chunki xorijlik talabalarning katta oqimi so‘nggi yillarda vujudga kela boshladi. Maqolada o‘zbek tilini xorijlik talabalarga o‘rgatishda lingvistik bilimlarni taqdim qilishning ba‘zi xususiyatlari, ya‘ni grammatik va leksik talablar ochiqlab ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, ko‘nikma, sillabus, o‘zbek tili, xorijlik talaba, grammatik bilimlar, lug‘at darajasi.

Kirish. “O‘zbek tilining beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning jahon miqyosida nufuzi va jozibadorligini oshirish uchun hali oldimizda ko‘plab vazifalar turibdi”, – degan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbek tili bayramining 35-yilligi munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigida. [1] Prezidentning ushbu da‘vatida o‘zbek tilini maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, yurtimizdagi va xorijdagi oliy ta‘lim muassasalarida ona tili sifatida o‘qitish, davlat tili sifatida o‘qitish va xorijiy til sifatida o‘qitish nazarda tutilgani shubhasizdir.

Xususan, uzoq yillardan beri oliy ta‘lim muassasalarida xorijlik talabalarga xorijiy til sifatida o‘qitib kelinayotgan o‘zbek tilining ayni paytda yangi bosqichga chiqqanini ham e‘tirof etish kerak. Bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan chet ellik talabalar soni har qachongidan ham ko‘p. Rasmiy manbalarda chet ellik talabalar uchun o‘z dasturlarini taklif qilgan OTM soni 109 tani, ta‘lim dasturlari soni 3 298 tani va bu OTM da ta‘lim olayotgan chet ellik talabalarning soni 34 760 tani tashkil etayotgani ko‘rsatilgan. [2] Ushbu raqamlar shuni anglatadiki, o‘zbek tilini xorijlik talabalarga o‘qitish va o‘rgatishda til o‘qitishning zamonaviy yondashuvlarini takomillashtirish, xalqaro tajribani joriy qilish va o‘quv materiallarini (bosma, elektron) yaratish oldimizda turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



O‘zbek tilini xorijlik talabalarga o‘rgatishda, eng avvalo, OTM katta jonbozlik ko‘rsatishlari kerak bo‘ladi. Birinchi navbatda o‘zbek tilini xorijlik talabalarga o‘rgatishning mexanizmini yo‘lga qo‘yish kerak. Bu mexanizm o‘z ichiga kadrlar masalasi, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘quv jarayoniga yetarlicha soatlarning ajratilishi, o‘quv-didaktik materiallarni yaratish, baholash va sertifikatlash tizimini joriy qilishni qamrab oladi. O‘quv-didaktik materiallarini yaratish, baholash va sertifikatlash yuqoridagi mexanizmning asosini tashkil qiladi. Bu asosni takomillashtirish esa o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning leksik-grammatik ko‘nikmalarini, ya’ni lingvistik kompetensiyalarini aniqlab olishdan boshlanadi.

Asosiy qism. Tilni ona tili, ikkinchi til, davlat tili, chet tili yoki ikkinchi chet tili sifatida o‘qitar ekanmiz, har qanday holatda ham u ikki kompetensiyaning uzviyligidan iborat bo‘ladi: nutqiy kompetensiya (o‘qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va so‘zlash) va lingvistik kompetensiya (grammatika va lug‘at). Nutqiy kompetensiyalar tilni amaliy o‘rganishning muhim jihati hisoblansa-da, uni lingvistik kompetensiya ustiga qurish afzal hisoblanadi.

O‘zbek tilini o‘qitishda uzoq yillar faqat lingvistik kompetensiya ustunlik qilib, o‘rganuvchilarning o‘qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va so‘zlash ko‘nikmalariga e’tibor qaratilmay kelingan. Ko‘p yillik bu yondashuv o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitishda ham amal qilgan. Ayni paytda xorijlik talabalarga o‘zbek tilini o‘qitishda ham o‘zga tilli guruhlarga o‘zbek tilini o‘qitish metodlaridan, dasturlaridan va darsliklaridan foydalanilayotgani sir emas. Hozirda xorijlik talabalar ko‘proq tibbiyot OTM da ta’lim olayotgani uchun, bu oliygohlarda o‘zbek tili kafedralari mavjud bo‘lib, ularda xorijlik talabalarga o‘zbek tili bilan bir qatorda chet tillari ham o‘qitiladi. Toshkent tibbiyot akademiyasi shular jumlasidandir.

Akademiyaning Xalqaro fakultetida O‘zbek va xorijiy tillarni o‘qitish kafedrasini tashkil qilingan. Kafedra o‘qituvchilari tomonidan xorijlik talabalar uchun O‘zbek tili fani bo‘yicha ishlab chiqilgan sillabusda jami 60 soat ajratilib, shundan 30 soati amaliy mashg‘ulatlarga, 30 soati mustaqil ta’limga taqsimlangan. Amaliy mashg‘ulot soatlari nutqiy mavzular bilan nomlangan bo‘lib, har bir mavzu ma’lum leksik-grammatik mavzu asosiga qurilgan. Masalan, “Salomlashuv odobi” soatida alifbo, unli va undosh tovushlar; “Tanishuv” soatida tovushlar talaffuzi; “Men talabaman” soatida sodda gap; “Nima bezovta qilyapti?” soatida hozirgi zamon fe’li kabi grammatik mavzular o‘qitilishi nazarda tutilgan. [3]

Biror bir xorijiy tilni o‘rganar ekanmiz, bunda ma’lum maqsad nazarda tutiladi: ish, sayohat, yashash, ta’lim olish, tadbirkorlik, diplomatiya va h. Xorijlik

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



talabalarning o‘zbek tilini o‘rganishidan asosiy maqsadi yashash, ta’lim olish, qisman ishlash. Ko‘rinib turibdiki, bu maqsadlar uchun tilni boshlang‘ich emas, o‘rtadan yuqori darajada bilish talab qilinadi. Garchand O‘zbekistondagi xorijlik talabalar ingliz tilida ta’lim olsalar-da, ularning mahalliy sharoitda yashash va harakatlanish, ishlash, amaliyot o‘tash va akademik muammolarni bartaraf etishlari uchun o‘zbek tili juda muhim hisoblanadi.

Demak, muammoni bartaraf etishning yagona yo‘li sifatida takroran o‘quv soatlari hajmini ko‘paytirish, kadrlar masalasini hal qilish va o‘quv-didaktik vositalarni takomillashtirishni tavsiya qilamiz. Dars soatlarini ko‘paytirish kamida tilni boshlang‘ich darajada bilishga yetarli soatlarni nazarda tutadi. Ba’zi tavsiyalar shuni ko‘rsatadiki, biror chet tilini o‘rganish uchun 2 yoki 3 oy vaqt sarflanadi. Bunda o‘rganuvchining o‘rganish uchun kun davomida ajratgan vaqti, o‘rganish usuli (kursda, mustaqil yoki darsda) ham muhim hisoblanadi. [4]

Xorijlik talabalar uchun o‘zbek tilini o‘rgatishni ikki bosqichda amalga oshirish lozim. A1 daraja miqyosida dastlabki nutqiy ko‘nikmalar va lingvistik bilimlarni CEFR talablariga monand va A2 darajada qisman CEFR talablari, shuningdek, mutaxassislik doirasi, tilning amal qilish hududi, lingvomadaniy va sotsiolingvistik kontekst asosida taqdim qilish o‘rinlidir.

A1 darajaga xoslangan o‘zbek tilining grammatik kompetensiyasi [5] va A1 hamda A2 daraja uchun lug‘at kompetensiyasini [6] avvalgi ishlarimizda e’lon qilganmiz. Demak, A2 darajada qaysi lingvistik ko‘nikmalar muhimligini ham quyida ko‘rib chiqamiz.

A1 darajada sodda gapni shakllantirish va fikrni bayon qilishni nazarda tutuvchi tayanch grammatik ko‘nikmalar taqdim qilingan bo‘lsa, A2 daraja uchun fikrni to‘liqroq bayon qilishga undovchi grammatik bilimlar taqdim qilinadi. Bunda kelishiklarning qo‘shimcha grammatik mazmun kasb etishi, sonlarning ma’no guruhlari (jamlovchi son, chama son, taqsim son, kasr son, tartib son), hisob so‘zlar, sifat darajalari (orttirma daraja, qiyosiy daraja, ozaytirma shakl), ko‘makchilarning qo‘llanishi, bog‘lovchilarning qo‘shma gap qismlarini bog‘lashda ishtirok etishi, zamon shakllarining aniq zamondan yordamchi zamonga o‘tishi (o‘tgan zamon davom fe’li, uzoq o‘tgan zamon, o‘tgan zamon eshitilganlik fe’li, o‘tgan zamon hikoya fe’li, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon noaniqlik fe’li, kelasi zamon maqsad fe’li), ko‘makchi fe’llarning voqelanishi, fe’lning mayl shakllari (shart mayli va istak mayli), fe’lning nisbat kategoriyasi (o‘zlik, majhul, orttirma va birgalik nisbat), shuningdek, fe’lning vazifadosh shakllari (harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh),

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



kiritmalar, ko‘chirma gapli qo‘shma gapning hosil qilinishiga ham urg‘u qaratish lozim.

Grammatik ko‘nikmalarni taqdim qilish A2 darajaning mazmuniga ta’sir qilmaydi. Mamzunni asosan nutqiy mavzular va lug‘at belgilaydi. “Shifokor bo‘laman”, “Abu ALi Ibn Sino”, “Kasalliklar”, “Vitaminlar nega kerak?” kabi nutqiy mavzularni A1 darajada emas, A2 darajada mustahkamlash maqsadga muvofiq. Qayd etilgan daraja tilni sohaviy o‘rganish va madaniy kontekstda mustahkamlashni nazarda tutgani uchun sohaga oid atamalarni, iboralarni lug‘at ilmi sifatida singdirish mumkin.

Xulosa. Tilni o‘rganish turli auditoriyaga va maqsadlarga xoslanganini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘zbek tilini oliy ta’lim muassasalarining xorijlik talabalariga o‘rgatish alohida yondashuv ekanligini ta’kidlash joiz. Bunda qisqa muddat ichida katta natijaga erishish talab etiladi. O‘zbek tilini amaliy o‘rganishda nutqiy kompetensiyaga bo‘ysundirilgan lingvistik talablar o‘z qimmatini yo‘qotmaganini, aksincha, yangi bosqichga chiqqanini ta’kidlash lozim. Lingvistik bilimlar til ta’limining asosi ekanligini saqlab qolmoqda. Ta’lim jarayonida katta e’tibor lingvistik bilimlarga qaratilmasligi, balki uni kerakli maqsadga bo‘ysundirish lozimligi aktual ishdir. Lingvistik bilimlarsiz tilni amaliy jihatdan ham o‘rganib bo‘lmasligi turli omillarga bog‘liqdir. Tilni o‘rganishga ajratilgan vaqtdan tortib uning o‘quv-didaktik ta’minotigacha, bilimlarni baholashdan tortib sertifikatlashgacha bo‘lgan jarayonning barchasi til o‘qitishning yaxlit, to‘g‘ri tashkil qilinganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi
2. <https://studyin-uzbekistan.uz/>
3. Avezova K., Temirov J. O‘zbek tili fani bo‘yicha sillabus – Toshkent. 2024.
4. İngilizce A1 Seviyesi ve İngilizce A1 Konuları (Açıklamalı).
5. Rasulov N. O‘zbek tilining A1 darajasiga qo‘yilgan grammatik talablar – Filologiya va pedagogika jurnali. – 2024-yil, 4-son.
6. Rasulov N. O‘zbek tilining boshlang‘ich darajasi (A1 va A2) uchun leksik talablar – Oliy ta’limda tillarni o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari: yangicha yondashuv va tadqiqotlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami – Namangan. 2025.28.02.